

ZAMONAVIY ICHKI ISHLAR ORGANI HODIMLARIDA CHET TILLARINI O'RNI  
VA AHAMIYATI!

**Жамолиддинов Раҳматилла Баҳтиёр ўғли**

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси

кундузги таълим 2-ўқув курси 217-гуруҳ курсанти

**Каршиев Улуғбек Ҳасанович**

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси курс  
бошлиғи ўринбосари

**Муроталиев Жаҳонгир Раимжон ўғли**

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси отряд  
командири ТИБ ўринбосари

**Аннотация:** В этой статье вы можете увидеть важные аспекты иностранных языков в формировании сотрудников органов внутренних дел, которые являются опорой и доверием Нового Узбекистана, подходящие для современности, а также льготы, созданные для сотрудников, которые знать иностранные языки.

Также сотрудникам органов внутренних дел, желающим выучить иностранные языки, дам 7 советов, основанных на моей личной практике, как легко и быстро выучить английский как один из иностранных языков, а кроме него, интересно и полезное мобильное Ваше знакомство с приложениями, в свою очередь, станет одним из шагов на пути к вашей цели изучения английского языка.

**Ключевые слова:** Вариант, подзаголовок, актер, карточка, маркер, грамматика и атмосфера.

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonning tayanchi va ishonchi bo'lgan hozirgi rivojlangan zamonga mos ichki ishlar organlari hodimlarini shakllantirishda chet tillarining muhim jihatlari, shuningdek chet tillarini biladigan xodimlariga yaratilgan imtiyozlarni ko'rishingiz mumkin.

Shuningdek, chet tillarini o'rganishni istagan ichki ishlar organlari xodimlariga chet tillaridan biri bo'lgan ingliz tilini oson va tez o'rganish yuzasidan, shaxsiy amaliyotimdan kelib chiqqan holda tuzilgan 7 ta maslahatlarimni va unga qo'shimcha tarzda qiziqarli hamda foydali bo'lgan mobil ilovalarni uchratishingiz o'z navbatida ingliz tilini o'rganishga qo'yilgan maqsad sari qo'yilgan qadamlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Variant, subtitr, aktyor, kartochka, highlighter, gramatika va atmosfera.

**Annotation:** In this article, you can see the important aspects of foreign languages in the formation of employees of internal affairs bodies, which are the support and confidence of New Uzbekistan, suitable for the modern times, as well as the benefits created for employees who know foreign languages.

Also, to the employees of the internal affairs bodies who want to learn foreign languages, I will give 7 tips based on my personal practice on how to easily and quickly learn English as one of the foreign languages, and in addition to it, interesting and useful mobile Your encounter with the apps will in turn appear as one of the steps towards your goal of learning English.

**Key words:** Option, subtitle, actor, flashcard, highlighter, grammar and atmosphere.

Xalqimizda "Til bilagan - el biladi", - degan maqol bejizga aytilmagan, albatta. Shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar safida ham hozirgi paytda Yurtboshimiz tomonidan bir qator islohotlar yaratilishiga javoban Ichki ishlar organlari safida ham chet tillarini biladigan malakali xodimlar soni ortib bormoqda. Shuningdek, ushbu maqola sohamizda chet tillarini mukammal biladigan xodimlar sonini ortishiga xizmat qiladi degan umiddaman!

Shaxsiy amaliyotimga tayangan holda ingliz tilini o'rganish hamda tilni bilish darajasini oshirish uchun mening 7 maslahatimni Sizlarga taqdim etaman:

1. So'z boyligini oshirish ("Flash card" usuli). Har bir tilni o'rganishda albatta so'z boyligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin hozirgi paytda deyarli ko'pchilik tomonidan so'z boyligini oshirishga qilgan harakatlari orqali ingliz tilini o'rganishga bo'lган shijoatni so'ndirib qo'yishayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin, ya'ni qiyin va zerikarli yo'llar bilan so'zlarni yodlashga o'zlarini majbur qilishmoqda. Bu albatta tilni o'rganishdagi katta xato hisoblanadi va bu o'z navbatida shaxsning ruhiyatiga ta'sir qilib, o'ziga nisbatan mavjud bo'lган motivatsiyani so'ndirib qo'yishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli so'z boyligi oshirish uchun so'zlarni ketma-ket tarzda lug'at yodlash usulidan voz kechishni taklif qillardim. Uning o'miga qiziqarli va samaradorligii ytuqori bo'lган so'z bo'yligi oshirish usuli sifatida birinchi navbatda atrofimizdagi narsalarning nomini, o'rganmoqchi bo'lган tildagi tarjimasi bilish va bu jarayonni so'zlarni yodlash bilan davom ettirish maqsadida o'yin shaklida ya'ni kichkina kartochkalar tayyorlab uning oldi tarafiga so'zning o'zbekcha nomlanishi va uning ortiga esa ingliz tilidagi tarjimasini yozish va shinamgina honangizga sochib qo'yiladi va har bir

qadam bosganingizda uchragan kartochkani olib, uni tarjimasini aytish lozim va shu zaylda o'zin kartochkalar tugagunga qadar davom etadi. Bu albatta ingliz tilidagi so'z boyligingizni oshirishga yordam beradigan eng oson usullaridan biri hisoblanadi.

2. Eshitish qobilyatini shakllantirish. To'g'ri, barcha ingliz tilidagi qo'shiqlarni bir eshitishda tushunish imkonsiz lekin, boshlanishiga sekinroq kuylangan qo'shiqlarni (misol uchun, "Ed Sheeran-Perfect") eshitish yomon natija bermaydi va sekin - sekin tez kuylanadigan qo'shiqlarni misol tariqasida, rep yo'nalishida kuylanilgan qo'shiqlarni eshitish hamda ma'nosini tushunish darajasiga yetish mumkindir. Har bir insonda, albatta, ko'chaga chiqqanda yoki ubu joyga avtobusda, metroda, taksida ketayotganda ko'p bo'sh vaqt bo'ladi, shu sababli, ushbu vaqtlarni besamar ketgazmaslik uchun ingliz tilidagi qo'shiqlarni eshitib kuylashga harakat qilish kerakdir. Shuningdek, alohida qo'shiqlarni diktant shaklida qayd qilish uchun daftar tutgan holda ingliz tilida kuylangan qo'shiqni eshitish jarayonida uni ushbu daftarga nimani eshitayotgan bo'lsangiz o'shani diktant shaklida yozish va musiqa tugaganidan so'ng esa qo'shiqning matni bilan solishtirib tekshirib chiqish hamda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yaningiz haqida o'ylash va bu jarayonni yana davom etirishingiz o'z navbatida eshitish qobilyatingizni rivojllantiishga juda katta yordam beradi.

3. Ingliz tilida kinolar ko'rish. Ko'pchilikning bo'sh vaqtini yoqimli o'tgazishga yordam ko'maklashuvchi mashg'ulotga aylangan kino ko'rish insonning ko'rish qobilyatiga salbiy ta'sir ko'rsatsada, lekin, ingliz tilini o'rganishga yordam beruvchi vosita sifatida ko'rishimiz mumkin. Bollaligimizdan hammamizga sevimli bo'lgan kinolardan biri bo'lmish, "Uyda yolg'iz" ("Home alone") kinosini internet orqali ingliz tilidagi variantlarini topishimiz oson. Shunday ekan, kinolarni ingliz tilidagi variantida ko'rish tilni o'rganishga yuqori samara beradi va shu bilan birga kinoni "Subtitle" ya'ni subtitri bilan ko'rish ushbu kinoning mazmun-mohiyatini tushunish uchun ko'maklashadi. Bundan tashqari, ingliz tilida kinoni ko'rish paytida subtitridan foydalanishning 2 (ikki) ta foydali jihatlari mavjud va ular quyidagilardir:

1) ko'p hollarda, ingliz kinolarida aktyorlar rol o'ynashlari davomida nutqda foydalaniladigan ayrim gaplarni yoki so'zlarni qanday tarzda qisqartirib aytishlari mumkinligi hamda inglizcha talafuzda qanday tartibda foydalanilishini kinoni ko'rish davomida eshitish mumkin;

2) ingliz tilida kino korishda ayrim notanish bo'lgan so'zlarni uchratish bu tabiiy hol hisoblanadi, shu sababli, ushbu notanish va yangi

bo'lgan so'zlarni tarjima qilish orqali shu yerning o'zida, so'z boyligimizni oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida kinoni subtitiri bilan ko'rish qisqa vaqt ichida tilni tezda o'rganish hamda maroqli ingliz olamiga sayohat qilish imkonini yaratadi.

**4. Ko'proq kitob o'qish.**

Ayni paytda kitoblarni sevib mutoala qiluvchilar yurtimizda ko'p albatta, Shunga mos ravishda turli xil nashriyotlar tomonida ko'plab tillarda yozilgan badiiy kitoblar chop etilmoqda. Bu o'z navbatida ingliz tilida yozib ijod qiluvchi yozuvchilar qalamiga mansub bo'lgan har xil janrda yozilgan asarlarni kitob shaklida va shu bilan birga elektron shaklini ham topish kitobni sevib mutoala qiluvchilarga qiyinchilik tug'dirmasligidan dalolat beradi. Ingliz tilini o'rganaman deb, o'quvchilar tomonidan ingliz olamiga qadam bosarkanlar eng yaxshi ingliz tilini o'rgatuvchgi yo'l sifatida ingliz tilida kitob o'qishni tavsiya qilgan bo'ardim. Chunki, ingliz tilidagi kitoblarni o'qigan har bir o'quvchi albatta, chet davlatlarning urf-odatlari, an'analari va madaniyati haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lismaydi. Shu bilan birga, ingliz tilida yozilgan kitoblarni o'qish orqali turli xildagi yangi so'zlarni uchratish va ularni tarjimasini bilib olish natijasida so'z boyligingizni ham oshirishga muvofaq bo'lasiz. Ingliz tilida endi o'rganishni boshlagan ya'ni ingliz tilini bilish darajasi "Boshlang'ich" bo'lgan o'quvchilarga maslahat sifatida, kichik hajmdagi ertaklarni o'qishdan boshlashni yoki asarlarni o'qishni hohlagan o'quvchilarga oddiy ya'ni murakkab bo'limgan so'zlardan foydalangan holda yozilgan kitoblarni o'qish maqsadga muvofiq bo'ardi( misol uchun, Richard Templar - "The rules of life"). Shuningdek, vaqt o'tgan sari va ingliz tilini bilish darajasi o'sgandan so'ng kattaroq hajmdagi asarlarni o'qish o'z navbatida kitobni o'qish davomida tushunishda qiyinchiliklarga sabab bo'maydi. Bundan tashqari, ingliz tilida kitob o'qish jarayonida iloji boricha "Highlighter" dan foydalangan holda o'qishni tavsiya qilgan bo'ardim. Chunonchi, ingliz tilida kitob o'qish vaqtida albatta, yangi so'zlarga duch kelasiz va shu vaqtida ushbu "Highlighter" yordami ushbu yangi so'zni belgilab qo'yishingiz keyinchali ushbu so'zlarni tarjimasini topishingiz zarur ekanligini eslatib turuvchi belgi sifatida namoyon bo'ladi. Tarjimasini topib bo'lganingizdan so'ng "Highlighter" bilan belgilab qo'ygan yangi so'zlarning yoniga tarjimasini qalam bilan yozib qoyib va yangi so'zlarni yodda saqlashga harakat qilishingiz o'z o'rnida, so'z boyligingizni oshiruvchi yana bir usul sifatida ko'rishingiz mumkin. Tajriba sifatida qilib ko'rishingiz maslahat bergen bo'lardim, bu albatta qiziq!

**5. O'g'zaki nutqni o'stirish.**

Hohlagan insonning oldiga borib, ingliz tilini bilishingizni bildirsangiz, u inson sizdan birinchi navbatta ingliz tilida gapireshingizni talab qiladi. Bu esa ingliz tilini o'rganishda faqatgina ingliz tili gramatikasini yoki so'z boyligini oshirishni o'zi yetarli emasligi shu bilan birga, ingliz tilida suhbatlasha olish qobilyatini shakllantirish kerakligidan dalolat beradi. Ingliz tilini o'rganishni istagan har bir o'quvchi ingliz tilida gapireshga harakat qilishi kerak hoh so'z boyligi kam bo'lsa ham. Shuningdek, ingliz tilida og'zaki nutqni shaklantirishning eng oson yo'llaridan biri sifatida ingliz tilini o'zidan yaxshiroq biladigan inson bilan ingliz tilida iloji boricha ko'proq suhbatlashishni taqazo etadi. Ushbu jarayonda, ingliz tilini yaxshiroq biladigan shaxs ingliz tilini o'rganuvchi shaxsga og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadiga suhbat davomida yo'l qo'ygan kamchiliklarini aytib, ko'maklashishi mumkin va bu o'z navbatida ingliz tilidagi og'zaki nutqni o'stirish imkoni beradi.

#### 6. Kunlik daftar tutish.

Inson ongida barcha turdag'i ma'lumotlarni qabul qila olishi mumkin, lekin, xotiraga saqlab olish har xil usullar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, yozish, eshitish, gapirish, va hakozolar. Shunday ekan, ingliz tilini o'rganishda va shu bilan birga, so'z boyligingizga yangi qo'shilgan ingliz tilidagi so'zlarni mustahkamlash maqsadida har kunning sarhisobini ya'ni bugun kun davomida bugungi kun uchun qo'yilgan rejalar amalga oshdimi yoki yoqmi shuningdek, bugun qanday o'zgacha va esda qolarli hodisa yuz berganligi yuzasidan kundalik daftarga ingliz tilida ya'ni o'zingizning so'z boyligingizda mavjud bo'lган so'zlardan foydalanilgan tarzda qayd etishingiz o'z o'rnila ingliz tilida fikrlashga chorlagen holda ingliz tilida yozish qobilyatini rivojlantirishga ko'maklashadi (Masalan, "I have done my course work from IT. It was so easy for me.").

#### 7. Inglizcha atmosfera yaratish.

Har bir inson chet el davlat tilini o'rganishga harakat qilar ekan, o'sha davlatning urf-odati, an'analari hamda madaniyatini o'rganishni talab qiladi. Shunday ekan, ingliz tilini o'rganishni istagan o'quvchi birinchi navbatda o'znini atrofini ingliz olami bilan qoplab olgan bo'lsa, tilni o'rganish osonlashadi va 100% natija bilan samaradorlik ko'rsatgichi yuqorilganini guvohi bo'lasiz. Bunga misol sifatida quyidagi holatlarni bayon etish mumkin: qo'shiq eshitishni istasangiz albatta inglizcha qo'shiq eshitib yurishingiz, kinolarni ingliz tilida iloji bo'sa subtitri bilan ko'rishingiz, kitob o'qishni istasangiz ingliz tilidagi kitobni o'qishingiz, ingliz tilida gaplashadigan insonlar bilan ingliz tilida ko'proq suhbatlashingiz shuningdek, agar ingliz tilini o'rganish maqsadida ingliz tilini o'rgatuvchi o'quv markaziga borishingiz va boshqalar. Shuni inobatga olish kerakki, ingliz tilini o'rganish uchun o'quv markaziaga

borish istagi paydo bo'lgan bo'lsa agar u holda ushbu jihatlariga e'ibor berish lozimdir: ya'ni o'quv markazlari ko'pligi bois qay birini tanlash yuzasidan muamolar tug'ilsa hech ikkilanmasdan o'quv markazi yevropacha usulda tamirlanib, atmosferasi ingliz muhitini o'zida mujassamlashtirsa agar (masalan, "Inter nation" o'quv markazi), ishonamanki, ingliz tilini o'rganishingiz oson bo'ladi va o'z navbatida u yerda ko'p hollarda ingliz tilini yaxshi biladigan hamda chunarli va qiziqarli qilib darslarni o'tkazish mumkin bo'lgan o'qituvchilar bo'ladi, lekin, bu o'qituvchi tanlash ixtiyoriy bo'lGANI bilan ham asosiy ham ikkilamchi masala hisoblanadi, shu sababli bu masalaga o'quv markazini topib bo'lgandan keyin to'xtalsangiz ham boladi. Shuningdek, shaxs o'zining tabiiy ehtiyojlari yuzasidan ham ingliz tilini o'rganishga harakat qilishi mumkin, misol uchun, ingliz tilini bilmaydigan shaxsni Angliyaga olib borib qo'yilsa, buning natijasida kamida 1 oy ichida ushbu ingliz tilini bilmaydigan shaxs og'zaki ingliz tilida suhbatlasha olishini ko'rishimiz mumkin. Chunki, ushbu shaxsning atrofini ingliz millatiga mansub bo'lgan fuqarolar qurshab olganligi bois ularga faqatgina ingliz tilida gapirish kerakligini taqazo etadi masalan, do'kondan o'z ehtiyoji yuzasidan narsa xarid qilgani kirishi uchun ham ingliz tilida gapiishi lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida ingliz atmosferasining borligi natijasi sifatida aks etadi.

Hozirgi zamonda hayotimizning hech qaysi bir jabhasini zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lgan uyali aloqa vositalari ya'ni sodda qilib aytganda telefonlarsiz tassavur ham qila olmaymiz. Shunday ekan olidingi davrdan ko'ra hozirda har bir sohada foydalanish mumkin bo'lgan telefonlar bizlarga kata-katta imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Misol uchun, joyingizdan jilmasdan turib o'z ehtiyojingizni qondirish maqsadida kerakli narsalarni harid qilishingiz mumkindir. Undan tashqari chet tillarini o'rganishni istagan har bir shaxsga telefonlarning borligi o'z navbatida keng imkoniyatlar ko'lagini yaratib beradi. Masalan, "YOU TUBE" ya'ni videolar va kinolar platformasi orqali u yerda mavjud bo'lgan kanallarga obuna bo'lish yo'li bilan o'zingizga zarur va foydali bo'lgan videolarni topish imkonini beradi. Shuningdek hozrgi davrda ingliz tilini o'rganishni istagan har bir o'quvchilarga qulaylik yaratish maqsadida o'qituvchilar tomonidan ochilgan kanallarda ingliz tilini oson yo'llarni o'zida mujassamlashtirgan videolardan iborat kurslarni online ko'rish orqali ingliz tilini o'rganish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari har kuni foydalanadigan ilovalar turkumiga kiruvchi ingliz tillini o'rganishda qulaylik va osonlik yaratuvchi soda qilib ishlangan ilovalarni Android telefonlarda "Play Market" hamda Iphone telefonlarda "Apple Marketdan"dan yuklab olishingiz ingliz tilini mustaqil o'rganish va

ingliz tilini bilish darajasini oshirishga yordam beradi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuni ham nazarda tutish lozimki, ushbu sizlarga tavsiya qilmoqchi bo'lgan ilovalar internet bozorlarida eng ko'p yuklab olingan va maqtovlarga sazovar bo'lgan ilovalardir.

Ular quyidagilar:

1. "BBC LEARNING ENGLISH" – bu ingliz tilida har xil foydali audiolar lug'atlar, grammatika va shunga aloqador "podcast"larni eshitish orqali ingliz tilini oson y'ol bilan rivojlantirish mumkin.

2. "QUIZLET" – asosan so'z boyligini oshirishga yordam beruvchi ilova hisoblanaiib, yodlamoqchi bo'lgan so'zlarni "flesh-card" usulidantayyorlab so'z boyligingizni ko'paytirishingiz mumkin.

3. "ZETFLIX" – ushbu ilova "Netflix" ning analogi bo'lib, o'z navbatida ingliz tilida kinolarni tomosha qilishda mustahkam ustun sifatida namoyon bo'lad.

4. "SPEAK PEAK" – butun dunyo bo'ylab ingliz tilida gaplashadigan turli xil millatga mansub insonlar bilan 20(yigirma) daqiqa davomida suhbatlashish imkonini beradi va har kimning ingliz tilini bilish darajasiga mos insonlarni bilan suhbatlashishda yordam beruvchi ya'ni har kim o'zining bilish darajasini belgilash imkonini beruvchi funksiyasidan foydalangan holda suhbatlashish mumkinligi yana ushbu ilovaning avfzalligi sifatida ko'rishimizda yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir IIO hodimlarining zamonaviy va xalqparvar qiyofasini shakllantirish maqsadida ularning har birlarida muomala madaniyatini, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini va shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi xalqini turli millatli fuqarolar tashkil etishi sababli chet tillarini o'rganish va bilish darajasini ko'tarish hozirgi zamon talabi hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hamda bu yerda istiqomat qiluvchi chet el fuqarolaringin huquqbuzarlik yoki jinoyati yuzasidan ariza bilan murojaat qilib keladigan dargohi ham bu albatta IIO hisoblanadi. Shu sababdan, chet el fuqarolari misol tariqasida, rus yoki ingliz millatiga mansub fuqarolar ariza bilan murojaat qilib IIO ga kelganlarida IIO hodimi ushbu arizani qabul qilish jarayonida hamda ushbu ariza yuzasidan holatga oydinlik kiritish paytida ya'ni tushuntirish xati olish vaqtida chet el fuqarosi bilan suhbatlashish hamda holat yuzasidan zarur savollarni berish davrida albatta IIO hodimiga arizachi so'zlashadigan tilda gapirishini ya'niki har bir IIO hodimini chet tillarini bilishi muhim ahamiyat kasb etishini uhbu jarayon taqazo etadi.

IIO hodimlarining ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini so'ndirmaslik hamda hozirgi yosh kadrlarning IELTS ya'ni ingliz tilini bilish darajasini

ko'rsatuvchi sertifikatni yangilashlari uchun ularga imkoniyat yaratish maqsadida, IIV tomonidan o'zining hodimlariga yordam berish maqsadida moddiy taraflama qo'llab-quvvatlash niyatida yoxud ingliz tilini o'rgatuvchi o'quv markazlarida o'qish uchun chegirmalar berish va IELTS sertifikatini yangilashlari uchun taxminan sertifikatni yangilash uchun ketadigan pul mablag'ining 50 % atrofida IIV tomonidan to'lаб berilishi o'z navbatida IIO hodimlariga yaratilgan keng imkoniyatlardan biri hisoblanib, bu o'z o'rnila boshqa IIO hodimlarini ingliz tilini o'rganishga jalb etuvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Natijada esa, IIO hodimlarining ingliz tilini biladigan hodimlarining salmog'ining o'sishiga olib keladi degan umiddaman.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Lex.uz (normativ hujjatlar bazasi)
2. [www.google.com/Chet\\_tillarini\\_oson\\_o'rganish](http://www.google.com/Chet_tillarini_oson_o'rganish) ( Butun jahon qidiruv tizimi)
3. ede.uz (milliy ta'lim internet portal)
4. Terabayt.uz ( Axborot texnologiyalari yangiliklari)
5. "Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.02.2022 yildagi 73-sont
5. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)